

2022-yil "03" fevral

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 117-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, keyingi o'rinlarda "Ijrochi" deb yuritiluvchi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi nomidan ustav asosida ish yuritiluvchi direktor I.Azimov bir tomondan, keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiluvchi Саниррава Велояли Ибрагимова Ўзбекистон Республикаси О.А. Қонига Ноб
(tashkilot nomi)

ikkinchi tomondan, keyingi o'rinlarda birgalikda "Tomonlar" deb yuritiluvchilar o'rtasida mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Ijrochi Buyurtmachining buyurtmasiga binoan quyidagi ishni (xizmatni) bajarish, Buyurtmachi esa bajarilgan ish (xizmat) uchun haq to'lash majburiyatini oladi:

№	Ish (xizmat) nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi (so'm)	Miqdori	Aksiz solig'i	QQS	Jami hisoblangan miqdor (so'm)
1.	Buyurtmachi xodimlarini o'zbek adabiy tili me'yorlari, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi, davlat tilida ish yuritish asoslari bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish (an'anaviy)	nafar	1	1 204 500	1	Aksiz solig'isiz	QQSsiz	1204500
Jami:		0	1	x	1	x	x	1204500

1.2. O'qitish va malaka oshirish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalari va malaka oshirish dasturlari asosida o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq (jami 144 soatlik) olib boriladi.

II. Shartnomaning umumiy bahosi va hisob-kitob tartibi

2.1. Shartnomaning umumiy bahosi QQS siz 1204500 so'mni tashkil qiladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma umumiy bahosining 30 foizini shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab 10 kun muddatda Ijrochining hisob raqamiga oldindan o'tkazib beradi.

2.3. Buyurtmachi shartnoma umumiy bahosining qolgan 70 foizini Ijrochi tomonidan hisob-faktura va bajarilgan ishlar haqidagi dalolatnoma berilgan kundan boshlab 10 kun muddatda Ijrochining hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoniga muvofiq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori o'zgariganda, Buyurtmachi xodimini o'qitish va malaka oshirish uchun to'lanadigan haq miqdori tomonlar o'rtasida tuziladigan ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv asosida o'zgartiriladi.

2.5. Tomonlar o'rtasida tasdiqlangan o'qitish va malaka oshirish jadvaliga muvofiq, Buyurtmachi xodimi kurs boshlangan kundan boshlab 10 kun mobaynida o'qishga kelmagan taqdirda, Ijrochi hisobiga o'tkazilgan mablag' Buyurtmachiga qaytarilmaydi.

III. Ijrochining majburiyatlari

3.1. Ijrochi mazkur shartnoma doirasida quyidagilarga majbur:

Sifat jihatidan yuqori darajada mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur o'quv, uslubiy va moddiy-texnik bazani tashkil etish;

o'qitish va malaka oshirish yo'nalishlari bo'yicha zarur axborot-ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ta'lim jarayoni uchun zamonaviy innovatsion pedagogik, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish;

Buyurtmachi xodimini Ijrochining ichki tartib-qoidalari bilan tanishtirish;

kurs yakunida 55 (ellik besh) va undan yuqori ball to'plagan tinglovchilarga davlat na'munasidagi sertifikat berish, 54 (ellik to'rt) va undan past ball to'plagan tinglovchilarga kursda o'qiganligi haqida ma'lumotnoma taqdim qilish.

IV. Buyurtmachining majburiyatlari

4.1. Buyurtmachi mazkur shartnoma doirasida quyidagilarga majbur:

Tomonlar o'rtasida tasdiqlangan o'qitish va malaka oshirish jadvalida nazarda tutilgan sondagi tinglovchilarni o'z muddatida o'qishga jalb etilishini ta'minlash;

o'z xodimlarining kurslarga uzrli sabablarsiz muntazam qatnashishlarini ta'minlash;

mazkur shartnomada ko'rsatilgan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish.